

Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 22,0 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Milliy statistika qo'mitasi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1-aprel holatiga, birlik	2026-yil 1-aprel holatiga, birlik
Oltinko'l	981	1 181
Andijon	1 739	1 950
Baliqchi	1 240	1 263
Bo'ston	564	822
Buloqboshi	672	617
Jalaquduq	712	850
Izboskan	1 175	1 133
Ulug'nor	368	677
Qo'rg'ontepa	1 238	1 008
Asaka	2 068	1 705
Marhamat	963	1 007
Shahrixon	1 449	1 497
Paxtaobod	867	850
Xo'jaobod	943	923
Andijon sh.	6 252	6 138
Xonobod sh.	409	401


Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-martida 1 257 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



2026- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 511 ta, sanoatda 235 ta, boshqa xizmatlarda 143 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 101 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


	2025- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2026-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Oltinko'l	62	71
Andijon	98	115
Baliqchi	58	70
Bo'ston	44	101
Buloqboshi	47	38
Jalaquduq	35	41
Izboskan	61	57
Ulug'nor	36	90
Qo'rg'ontepa	66	34
Asaka	70	104
Marhamat	56	58
Shahrixon	70	77
Paxtaobod	21	44
Xo'jaobod	51	49
Andijon sh.	212	292
Xonobod sh.	18	16

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 63,1% ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 0,4 % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8 664,3** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 33,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 114,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Izboskan tumani (100,0 %), Bo'ston tumani (100,0%), Shahrixon tumani (99,7 %), Jalaquduq tumani (99,1%), Ulug'nor tumani (89,4 %), Baliqchi tumani (88,8 %) va Andijon tumani (84,8 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2 862,6 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 86,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 113,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Xonobod shahri (100,0 %), Oltinko'l tumani (99,3 %), Marhamat tumani (98,9 %), Izboskan tumani (98,7 %) va Paxtaobod tumani (98,5 %) xissalariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 6 237,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 86,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 125,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Baliqchi tumani (98,4 %), Buloqboshi tumani (98,3 %), Paxtaobod tumani (96,7 %), Marhamat tumani (96,6 %) va Ulug'nor tumanlariga (96,4 %) to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 5 043,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 96,3 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 104,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Shahrixon tumani (98,5 %), Andijon tumani (98,4 %), Jalaquduq tumani (98,4 %), Izboskan tumani (98,4 %) va Qo'rg'ontepa tumani (98,4 %)ga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026 - yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 6 622,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 90,0,% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 111,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qo'rg'ontepa (99,2 %), Ulug'nor (98,9 %), Oltinko'l (98,7%) va Shahrixon (98,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 10 534,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 73,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025 - yil yanvar- mart oylariga nisbatan 111,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Jalaquduq tumani (71,7 %), Marhamat tumani (69,7 %), Xonobod shahri (69,6 %) va Xo'jaobod tumani (69,3 %), tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 143,5 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 56,2 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'ston tumanida – 100,0 %, Jalaquduq tumanida – 100,0 %, Izboskan tumanida 100,0 %, Shahrixon tumanida 100,0 %, Xonobod shahrida – 94,0 % va Andijon tumanida – 92,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar- sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 213,9 mln AQSH dollarini yoki jami importning 25,6 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Jalaquduq tumanida – 100,0 %, Shahrixon tumanida – 99,7%, Ulug'nor tumanida – 99,7 %, Bo'ston tumanida – 93,7 %, Marhamat tumanida – 92,4 % va Baliqchi tumanida – 88,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026-yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,4 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 81,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,5 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,8,% ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,5,% ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,9 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyat natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a'lo deb baholagan korxonalar ulushi 2026- yilning yanvar-martida 9,3 % ni tashkil etdi. yaxshi deb baholaganlar 59,9 %, o'rtacha deb baholaganlar 26,4 % ni tashkil etgani holda 4,4 %i yomon deb baholadi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar

2026- yilning yanvar-martida o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning shu davriga nisbatan yaxshilangan deb baholaganlar 29,7 % ni tashkil etgan, vaziyat o'zgarmagan deb hisoblovchilar 65,6 % ni tashkil etgan bo'lsa yomonlashgan deb baholaganlar 4,7 % dan iborat bo'ldi.


Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyat natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar

ulushi 2022- yilning yanvar-martida 44,7 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 44,9 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarining ulushi 2022- yilning yanvar-martida 47,7 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 51,9 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2022- yilning yanvar-martida 8,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 3,2 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli), % da



Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi Xizmatlar sohasida – 12,3% ni,


Sanoatda– 11,4 % ni, Savdoda - 7,5 % ni, Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 6,2%ni va Qurilishda 6,2%ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 73,8 %ni, sanoatda – 60,9 % ni, savdoda – 58,2 % ni, Xizmatlar sohasida – 57,3 % ni va Qurilishda 56,2 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini o‘rtacha deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi Qurilishda – 33,8 % ni, Savdoda – 28,8 % ni, Xizmatlar sohasida – 24,6 % ni, Sanoatda – 23,8 % ni va Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 18,5 %ni tashkil etdi.

Bundan tashqari iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi Xizmatlar sohasida – 5,8 %ni, Savdoda - 5,5 %ni, Sanoatda - 3,9 %ni, Qurilishda - 3,8 %ni va Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida - 1,5 % ni tashkil qildi.

Biznesga ishonch muhitini baholash (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.



Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesing-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>